Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish

Uglerod izi



62	Inson faoliyati bilan bogʻliq issiqxona gazlari tashlanmalarining asosiy manbayi bu.....
A	Oʻrmonlarning kesilishi;
B	Avtomobil transporti;
C	energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish;
D	qishloq xoʻjaligi.

63 Qaysi davlat eng koʻp issiqxona gazlarini chiqaradi?

A AQSH;

B Xitoy;

C Rossiya;

D Buyuk Britaniya.

64 Quyidagi energiya manbalaridan qaysi biri qayta tiklanmaydigan hisoblanadi?

A Suv koʻtarilib-qaytishi;

B bioyoqilgʻi;

C neft;

D quyosh energiyasi.

65	Sanab oʻtilgan energiya manbalaridan qaysi biri uglevodorodli xomashyo hisoblanmaydi?
A	Uran;
B	tabiiy gaz;
C	torf;
D	qoʻngʻir koʻmir.

66	Dunyoda eng koʻp iste'mol qilinadigan energiya qaysi energiya manbayiga toʻgʻri keladi?
A	Tabiiy gaz;
B	neft;
C	oʻtin;
D	shamol energiyasi.

67 Qaysi energiya manbalaridan foydalanganda issiqxona gazlari tashlanmalari eng kam boʻladi?

A Qoʻngʻir koʻmir;

B tabiiy gaz;

C quyosh energiyasi;

D neft.

68 Qaysi energiya manbai hissasiga ishlab chiqarilgan energiya birligiga nisbatan eng koʻp issiqxona gazlari toʻgʻri keladi?

A Koʻmir;

B quyosh energiyasi;

C neft;

D tabiiy gaz.

69 Neftdan qanday moddani olib bo‘lmaydi?

A Shisha;

B rezina;

C plastmassa;

D gaz.

70 Issiqlik elektr markazi (IEM) bilan issiqlik elektr stansiyasi (IES) o‘rtasidagi farq nima?

A	IEMda suv isitiladi, IESda elektr energiyasi ishlab chiqariladi;
Б	IEM yirik shaharlar uchun, IES esa kichik shahar va qishloqlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqaradi;
C	IEM elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqaradi, IES esa faqat elektr energiyasi ishlab chiqaradi;
D	IEM - bu kichikroq IES tarmog‘idan energiya oladigan markaziy taqsimlash stansiyasi.

71 **Atom stansiyalarining asosiy muammosi nima?**

A	Ular eng koʻp karbonat angidrid ishlab chiqaradi;
B	Ular xavfli radioaktiv chiqindilarni hosil qilib, halokatli baxtsiz hodisalar yuzaga kelish xavfi mavjud;
C	Stansiya qurish uchun mos joy tanlash qiyin;
D	Yer tubida deyarli yadro yoqilgʻisi qolmagan.

72 Dengiz shamol stansiyalari qayerda quriladi?

A	qirg‘oq chizig‘i bo‘ylab quruqlikda;
B	okean o‘rtasida;
C	tog‘larda;
D	dengizning qirg‘oqqa yaqin joyida.

73	Biomassa qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblanadimi?
A	Yoʻq, negaki yer qa'ridagi qadimiy organizmlarning qoldiqlari oʻrnini toʻldirib boʻlmaydi;
B	Yoʻq, negaki uning energiyasi yonganda elektr energiyaga aylanadi;
C	Ha, negaki energiya yoʻqolmaydi;
D	Ha, negaki oʻsimliklar yana oʻsadi.

74 Braziliyada avtomobil yoqilg‘isining 1/5 qismi quyidagilardan ishlab chiqariladi...

A banan po‘chog‘i;

B qahva donlari;

C shakarqamish;

D kokos moyi.

75 Qaysi elektr stansiya gidroenergetika bilan bogʻliq emas?

A	GES;
B	DTES;
C	GTES;
D	PES (Toʻlqinli Elektr Stansiyasi).

76	Vulqonlari faolligi bilan mashhur Yevropa davlatlaridan qaysi birida barcha elektr energiyasining 1/3 qismi geotermal elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi?
A	Ispaniya;
B	Italiya;
C	Islandiya;
D	Irlandiya.

77 Dunyodagi jami elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining qancha qismi qayta tiklanadigan manbalarga (shu jumladan gidroelektr stansiyalari) to‘g‘ri keladi?

A 5 foizdan kam;

B 10 %;

C 15 %;

D 20 foizdan ortiq.

78 Qaysi davlat jahonda birinchi boʻlib elektr energiyasining 50 foizdan koʻprogʻini shamol elektr stansiyalaridan ishlab chiqargan?

A Avstraliya;

B Daniya;

C AQSH;

D Buyuk Britaniya.

79 Qaysi shaharda quyosh energiyasidan foydalanish samaraliroq?

A Qohira;

B Oslo;

C London;

D Moskva.

80 Dunyodagi birinchi suv ko‘tarilib-qaytishidan foydalaniladigan elektr stansiyasi qaysi davlatda qurilgan?

A	Yaponiya;
B	Buyuk Britaniya;
C	Fransiya;
D	AQSH.

81	Yevropa Ittifoqida ishlab chiqarilgan elektr jihozlarida “A sinf” belgisi nimani anglatadi?
A	Jihozlar energiya tejovchi zavodlarda ishlab chiqarilgan;
B	Bular kundalik hayotda eng zararsiz jihozlar;
C	Eng kuchli jihozlar;
D	Jihozlar kamroq elektr energiyasini iste'mol qiladi.

82 Teplovizorlar qanday koʻrsatkichlarni oʻlchaydi?

A	Turar-joy binolari va jamoat binolarining quvurlaridagi issiqlik yoʻqotishlari;
B	har qanday yuza, masalan, uy devorlarida harorat taqsimoti;
C	sanoat korxonalaridan karbonat angidrid tashlanmalari;
D	xonalarni isitish uchun issiqlik sarfi.

83	Bino ichidagi haroratni oshirish uchun qanday harakatlar ekologik toza hisoblanmaydi?
A	Elektr isitgichlardan foydalanish;
B	isitish radiatorlari orqasida issiqlikni qaytaruvchilardan foydalanish;
C	kirish eshigini sovuq oʻtkazmaydigan material bilan qoplash;
D	deraza teshiklaridagi yoriqlarni yopish.

84 Nima uchun yorugʻlik diodli yoritgichlardan foydalanish afzalroq, garchi ular energiya tejaydiganlardan qimmatroq boʻlsa ham?

A	Ular har xil turdagi yoritish moslamaląri uchun mos keladigan yanada xilma-xil dizaynga ega.
B	Ularni oddiy axlat qutilariga tashlash mumkin, ular maxsus utilizatsiya qoidalarini talab qilmaydi.
C	Ularning tarkibida zararli simob moddasi yoʻq va ular kamroq energiya sarflagan holda ancha uzoq vaqt xizmat qiladi.
D	Ular sinmaydi, negaki juda bardoshli plastmassadan qilingan.

85 Uglerod izi nima?

A	Barcha sanoat korxonalaridan sayyoramiz atmosferasiga tashlanadigan karbonat angidrid tashlanmalari;
B	Yer yuzidagi oʻrmonlardagi uglerod zahiralarining yigʻindisi;
C	Shaxs, mahsulot, tashkilot, tadbir, shahar, davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita ishlab chiqariladigan barcha issiqxona gazlari tashlanmalarining yigʻindisi;
D	Elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun neft va tabiiy gazni yoqish jarayonida karbonat angidridga aylanadigan uglerod zaxiralari.

86 SO_2 ekvivalenti nima?

A	bir nechta o‘xshash korxona yoki tashkilotlar tomonidan atmosferaga tashlanayotgan karbonat angidrid gazi hajmi;
B	binolarda issiqlik ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg‘ini tejash hajmi;
C	o‘simlik tomonidan hayoti davomida yutiladigan SO_2 miqdori;
D	hisoblash va qabul qilish qulay bo‘lishi uchun har qanday faoliyat jarayonida ajralib chiqadigan barcha issiqxona gazlari hajmi karbonat angidrid miqdoriga keltiriladi.

87 Maishiy jihozlarning energiya samaradorligini aniqlashga nima yordam beradi?

A energiya samaradorligi yorliqlari;

B elektr hisoblagich ko‘rsatkichlari;

C qurilmaning ishlash muddati;

D jihoz ishlab chiqarilgan material.

88 Biror kishi yoki kompaniya oʻz uglerod izini qanday qoplashi mumkin?

A	Yangi energiya jihatdan samarador asboblarni tanlash;
B	Foydalanilmayotganda maishiy jihozlar va chiroqlarni oʻchirish;
C	Yoritish moslamalari sonini kamaytirish;
D	Daraxt ekish.

89 Issiqxona gazlari tashlanmalarining eng katta miqdori qaysi transport turiga to‘g‘ri keladi?

A Temir yo‘l;

B dengiz;

C aviatsiya;

D avtomobil.

90 “Karpul” nima?

A	Quyosh batareyasida ishlaydigan avtomobilning yangi turi;
B	boshqa yoʻlovchilar bilan birgalikda avtomobil sayohatlari;
C	avtomobil dvigatellari uchun ekologik standart;
D	elektromobillar uchun maxsus toʻxtash joyi.

91	Shahar bo‘ylab harakatlanishning qaysi usuli iqlim uchun eng bezarar?
A	jamoat transporti, masalan, avtobus;
B	shaxsiy transport vositalari, lekin kam yoqilg‘i sarflaydigan;
C	velosiped;
D	karpul – bir mashinada bir necha kishining biror joyga, masalan, ishga birgalikda yetib olishi.

92	Faol uy - bu quyidagi tavsifga ega uy...
A	energiya iste'mol qilinmaydi;
B	energiya ishlab chiqariladi;
C	hamma narsa kompyuter tizimi tomonidan boshqariladi;
D	ekologik harakat faollari yashaydi.

93 Shimolda joylashgan mamlakatlardagi passiv uy – bu quyidagi tavsifga ega uy...

A	energiya iste'mol qilmaydi;
B	juda yaxshi izolyatsiyalangan va deyarli energiya yo‘qotmaydi;
C	qurilish qoidalariga mos kelmaydi;
D	kompyuter orqali tartibga solishdan foydalanmaydi.

94 Issiqlikning katta qismi uydan quyidagi joydan chiqib ketadi.....

A	Pol;
B	deraza;
C	devor;
D	shift.

95 Qaysi axlatning parchalanishi koʻproq vaqt oladi?

A Qogʻoz;

B oziq-ovqat chiqindilari;

C plastik;

D temir.

96 Uglerod izini kamaytirish maqsadida do‘konga xaridlar uchun qaysi sumkani olib borgan yaxshiroq?

A	o‘zingizning plastik sumkangiz bilan;
B	sumka kerak emas: do‘konda bir marta ishlatiladigan polietilen paket sotib olishingiz mumkin;
C	qog‘oz qadoq bilan;
D	zig‘ir yoki paxtadan qilingan qadoq bilan.

97 Siz ota-onangiz bilan birga sotib oladigan qaysi mahsulotlarda uglerod izi eng kam?

A	mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar;
B	mamlakatning boshqa hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar;
C	qo‘shni davlatlardan keltirilgan mahsulotlar;
D	uzoq mamlakatlardan keltirilgan ekzotik mahsulotlar.

98	Kastryulkalardan energiya jihatdan samarador foydalanish boʻyicha qaysi maslahat toʻgʻri?
A	qopqoq yopiq boʻlishi kerak;
B	kastryulkaning tag qismi botiq boʻlishi kerak;
C	tag qismi gorelkadan bir oz kichikroq boʻlishi kerak;
D	kastryulka doimo ochiq boʻlishi kerak.

99 Dunyodagi birinchi faol uy qaysi davlatda qurilgan?

A Xitoy;

B Daniya;

C Ispaniya;

D AQSH.

100 **Kioto protokoli qaysi davlatda qabul qilingan?**

A AQSH;

B Yaponiya;

C Germaniya;

D Fransiya.

Javoblar:

1. C	14. D	27. D	40. C	53. B	66. B	79. A	92. B
2. A	15. B	28. B	41. A	54. B	67. C	80. C	93. B
3. C	16. B	29. B	42. C	55. B	68. A	81. D	94. B
4. A	17. C	30. C	43. A	56. C	69. A	82. B	95. C
5. D	18. C	31. C	44. C	57. C	70. C	83. A	96. D
6. D	19. B	32. D	45. D	58. C	71. B	84. C	97. A
7. A	20. C	33. C	46. A	59. C	72. D	85. C	98. B
8. A	21. B	34.B	47. A	60. B	73. D	86. D	99. B
9. B	22. B	35. D	48. A	61. D	74. C	87. A	100. B
10. D	23. A	36. A	49. A	62. C	75. B	88. D	
11. D	24. A	37. B	50. D	63. B	76. C	89. D	
12. C	25. D	38. C	51. C	64. C	77. D	90. B	
13. C	26. D	39. A	52. C	65. A	78. B	91. C	